

## I. YALPI HUDUDY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YaHM) hajmi joriy narxlarda 24 927,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.


### 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

|   | mlrd. so'm      |                 | O'sish<br>sur'ati,<br>% da |
|---|-----------------|-----------------|----------------------------|
|   | 2021- yil       | 2022- yil       |                            |
| <b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>            | <b>21 397,0</b> | <b>24 927,6</b> | <b>105,1</b>               |
| <i>shu jumladan:</i>                              |                 |                 |                            |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 20 860,7        | 24 148,5        | 104,9                      |
| Mahsulotlarga sof soliqlar                        | 536,3           | 779,1           | 113,7                      |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>20 860,7</b> | <b>24 148,5</b> | <b>104,9</b>               |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi          | 7 467,1         | 7 821,7         | 102,1                      |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)                | 4 791,8         | 6 160,5         | 108,6                      |
| Sanoat  | 3 275,3         | 4 366,0         | 108,7                      |
| Qurilish  | 1 516,5         | 1 794,5         | 108,4                      |
| Xizmatlar   | 8 601,8         | 10 166,3        | 105,2                      |

|  |         |         |       |
|--|---------|---------|-------|
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 578,1 | 1 915,9 | 108,4 |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari  | 1 555,0 | 1 814,3 | 110,8 |
| Boshqa xizmatlar                                 | 5 468,7 | 6 436,1 | 102,6 |

2022- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan yalpi hududiy mahsulot hajmi 6 154,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga yuqoridir.

### 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,4 % ni, sanoat tarmog'i 18,1 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 42,1 % ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 7,9 % ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari 7,5 % ni va boshqa xizmat tarmoqlari 26,7 % bo'ldi




**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan, % da)**

|  |  | 2021- yil    | 2022- yil    |
|--|--|--------------|--------------|
|  | <b>I. YaHM</b>                                   | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|  | <i>shu jumladan:</i>                             |              |              |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati           | 97,5         | 96,9         |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar                       | 2,5          | 3,1          |
|  | <b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>    | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|  | <b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>  | <b>35,8</b>  | <b>32,4</b>  |
|  | <b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>        | <b>23,0</b>  | <b>25,5</b>  |
|  | sanoat   | 15,7         | 18,1         |
|  | qurilish   | 7,3          | 7,4          |
|  | <b>Xizmatlar</b>                                 | <b>41,2</b>  | <b>42,1</b>  |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 7,6          | 7,9          |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa             | 7,5          | 7,5          |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari                         | 26,1         | 26,7         |



## 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



2022- yil





YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida

102,1 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,4 %), sanoatda 108,7 % (18,1 %), qurilishda 108,4 % (7,4 %), xizmatlar sohasida 105,2 % ni (42,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,4 % (7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,8 % (7,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,6 % (26,7 %) dan iborat bo'ldi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


■ 2021- yil    ■ 2022- yil



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida 1,8 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,1 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 5,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.) ga ko'paydi.




2022- yilning yanvar-iyun oylarida  
YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,9 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida -122,7 % va xizmatlar sohasida – 112,4 % qayd etildi.



### Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



### 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 67,4 % ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 70,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.